

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida talaba-yoshlari bilan
“Jaholatga qarshi–ma’rifat bilan kurash!” va “Inson qadri va huquqlarining
ustuvorligi –taraqqiyot poydevori” mavzularida o‘tkazilgan uchrashuv**

BAYONNOMASI

18.09.2025

Taklif etildi: **S.M.Boymurodov-** Diniy ishlar bo‘yicha qo‘mita Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi rahbari;

Qatnashdi: O.Murtazayev-TDIU Samarqand filiali direktori, X.I.Turdibekov–yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktorning birinchi o‘rinbosari, A.Axmedov-Korrupsiyaga qarshi kurash “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i, dekan va o‘rinbosarlari, ta’lim-tarbiya maslahatchilari va talabalar.

KUN TARTIBI :

1. “Jaholatga qarshi–ma’rifat bilan kurash!” va “Inson qadri va huquqlarining ustuvorligi –taraqqiyot poydevori” –Ma’ruzachi S.M.Boymurodov.

Tadbirni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktori O.Murtazayev kirish so‘zi bilan ochib, mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek ularni huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilayotganligini to‘g‘risi so‘zlab so‘zni Samarqand viloyat hokimligi diniy ishlar qumitasi boshqarma rahbari S.Boymuradovga berdilar.

Eshitildi: S.M.Boymuradov - Diniy ishlar bo‘yicha qo‘mita Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi rahbarining axboroti.

Barchamizga ma’lumki, hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o‘zgarib, insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar kuchayib, dunyo miqyosida shafqatsiz raqobat, turli ziddiyatlar tobora avj olmoqda. Mana shunday bir sharoitda barqarorlikni saqlashda ma’naviyat va ma’rifatga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “Biz ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma’naviyati bor inson Vatanni, albatta, yaxshi ko‘radi. Vijdon, ma’naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir.

Ma’rifat — kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma’rifat ilmu urfon ma’nosida ham ishlatiladi. Ma’rifat tushunchasi madaniyat, ma’naviyat tushunchalari bilan bog‘liq. Ma’rifat ma’naviy qaramlikni

bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuvchi ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo'lishga yordam beradi. Ma'rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo'ladi. Ma'rifat — bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif uni yoyish vositasidir. Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda muqaddas islom dinimizning insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etish, "Jaholatga qarshi – ma'rifat" tamoyili asosida unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalarini keng targ'ib qilish, hozirgi kunda yoshlar orasida uchrab turayotgan turli oqimlarga bilmasdan qo'shilib ketish holatlari, hamda Vatanimiz ravnaqiga putur yetkazmoqchi bo'lib turgan diniy ekstremizm va terrorizmning salbiy oqibatlari, ularni oldini olish, dinlar o'rtasida o'zaro ishonch, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, teng huquqlik, tinchlik va totuvlikni targ'ib qilish asosiy maqsadimizdir. Biz yoshlar ko'plab kitoblar o'qishimiz, ilm olishimiz, dunyoqarashimizni kengaytirishimiz muhim hisoblanadi. Zamon bilan hamnafas bo'lgan holatda dinni mahkam tutishimiz darkor. Bu mas'uliyatni har birimiz his qilishimiz, unga fidokorona harakatda bo'lmoq lozim.

Shuningdek S.Boymuradov qo'shimcha tafsilotlar berib shu o'rinda ekstremistik materiallarni tarqatish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi jinoyat va jinoyat-protsessual kodekslaridagi javobgarliklarga tortilishi mumkin bo'lgan moddalari va boshqa qonunchilik talablari bilan majlis qatnashchilarini tanishtirdi. Qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilinmaydi, ota-onalar ham bolalari qilmishi uchun javobgardirlar.

Sizlar to'g'ri tushunasizlar deb aytmogchimanki, hech kim fuqarolarimizni jinoyat javobgarlikga tortishni xohlamaydi, bizlar uni oldini olishimiz zarur.

Barchamiz ogoh bo'lib, misollardan o'zimizga xulosalar olib jamoa o'rtasida tushuntirishlar olib borsak ertangi kunimiz yorug' va tinch bo'lishini ta'minlangan bo'lamiz, tinch va farovon hayotga nima yetsin.

X.I.Turdibekov-yig'ilish davomida bildirilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, "Jaholatga qarshi–ma'rifat bilan kurash!" va "Inson qadri va huquqlarining ustuvorligi – taraqqiyot poydevori" mavzusi uchun Samarqand viloyati diniy ishlar bo'yicha qumita hududiy boshqarma rahbari S.M.Boymuradov minnatdorchilik bildirib, ularning ma'ruzalaridan talaba yoshlar o'zlariga kerakli xulosalarni chiqarib olganlarini, yurtimizdagi hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik sharoitida talaba yoshlarga barcha shart-sharoitlar yaratilganligini, ota-bobolarimizdan kelayotgan muqaddas islom diniga buzg'unchilik niyatida ta'sir o'tkazmoqchi bo'lgan kuchlardan himoya qilish, yoshlarning ongiga, ta'lim sohasiga kiritishini oldini olish, izchillik va murossasizlik bilan befarqlik bilan qaramasdan, har bir talaba yot g'oyalarga keskin kurashish kerakligini, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida ham

mafkuraviy xavf-xatarga qarshi ishlar qat'iy davom ettirilishini bildirib, yig'ilishni yakunladi.

QAROR QILINDI:

1. “Jaholatga qarshi—ma’rifat bilan kurash!” va “Inson qadri va huquqlarining ustuvorligi —taraqqiyot poydevori” to‘g‘risidagi S.M.Boymurodovning ma’ruzasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Barcha ta’lim-tarbiya maslahatchilari va guruh rahbarlari o‘tkazilayotgan “Ma’rifat darslari”da “Jaholatga qarshi—ma’rifat bilan kurash!” va “Inson qadri va huquqlarining ustuvorligi —taraqqiyot poydevori” mavzulari haqida xabardor qilinsin.

**Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy
ishlar bo‘yicha direktorning birinchi o‘rinbosari**



X.I. Turdibekov

“Jaholatga qarshi–ma’rifat bilan kurash!” va “Inson qadri va huquqlarining ustuvorligi –taraqqiyot poydevori” mavzularida o‘tkazilgan uchrashuvdan fotolavhalar

